

“SavingId”-sonli “ODAT” OMONATI (TALAB QILIB OLINGUNCHA DEPOZIT) BO‘YICHA SHARTNOMA

Toshkent sh.

“Date”

“TBC Bank” ATB, keyingi o‘rinlarda “Bank” deb ataladi, nomidan Ustav asosida faoliyat yurituvchi «DisbursementResponsiblePerson», bir tomondan va «FullName» (JShShIR: «PINFL», tug‘ilgan kun: «birthdate») keyingi o‘rinlarda “Mijoz”, “Omonatchi” deb ataladi, birgalikda “Tomonlar” deb ataladi, ushbu Shartnomani (keyingi o‘rinlarda “Shartnoma” deb ataladi) quyidagilar haqida tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

- 1.1. Jamg‘arma hisobvaraq (Talab qilib olinguncha depozit) bo‘yicha shartnoma (keyingi o‘rinlarda “Jamg‘arma hisobvarag‘i shartnomasi” va “Jamg‘arma hisobvarag‘i”, tegishlicha) Mijozning “TBC Bank” ATB mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etishning Bosh Shartlarini qabul qilishi (bundan keyin “BSh” deb ataladi), ushbu Shartnoma shartlari va bank hisobvaraqlarini ochishga doir Ariza/So‘rovni imzolashi/qabul qilishi, ularga xizmat ko‘rsatishi va boshqa bank xizmatlarini va mahsulotlarini (keyingi o‘rinlarda - Ariza/So‘rov)ni qabul qilishi sharti bilan tuziladi. Qabul qilish Mijozga talab qilib olinguncha depozitni masofadan ochish (Bank uni ochish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni olgan holda) va unga Mijozning pul mablag‘larini qo‘yilishini anglatadi. Jamg‘arma hisobvarag‘i shartnomasi 2.2.1- badda ko‘rsatilgan Bank tariflariga muvofiq eng kam miqdordan kam bo‘lmagan miqdordagi pul mablag‘lari talab qilib olinguncha depozitga o‘tkazilgan sanada tuzilgan hisoblanadi.
- 1.2. Ushbu Shartnoma BSh va Ariza/So‘rovning ajralmas qismi hisoblanadi.
- 1.3. Ushbu Shartnomada qo‘llanilgan atama va ta’riflar BShda ko‘rsatilgan.

2. SHARTLAR, PUL MABLAG‘LARNI JOYLASHTIRISH VA QAYTARISH

- 2.1. Mijoz pul mablag‘larini kiritadi va Bank Mijozdan Jamg‘arma hisobvaraq bo‘yicha shartnoma shartlariga ko‘ra qabul qiladi va pul mablag‘lari hamda hisoblangan foizlar summasini mazkur Jamg‘arma hisobvaraq bo‘yicha shartnomada nazarda tutilgan tartibda va shartlarda qaytarish majburiyatini oladi.
- 2.2. Jamg‘arma hisobvaraq bo‘yicha shartnomaning shartlari:
 - 2.2.1. Foiz stavkasi: Bankning www.tbcbank.uz veb-saytida joylashtirilgan ushbu omonat turi bo‘yicha bank Tariflariga muvofiq;
 - 2.2.2. Muddati: cheklanmagan;

- 2.2.3. Muddatsiz omonat ochish uchun minimal summa: Bankning ushbu omonat turi bo'yicha Tariflariga muvofiq;
- 2.2.4. Maksimal summa: Bankning ushbu omonat turi bo'yicha Tariflariga muvofiq;
- 2.2.5. Pulni qisman yechib olish: Bankning ushbu omonat turi bo'yicha Tariflariga muvofiq;
- 2.2.6. Qo'shimcha to'lovlar: Bankning ushbu omonat turi bo'yicha Tariflariga muvofiq;
- 2.2.7. Agar operatsiyalarni amalga oshirish jarayoni ishtirokchilaridan birida yuzaga kelgan texnik nosozliklar tufayli tizim vaqtincha ishlamasa, omonat bo'yicha operatsiyalarni bajarish imkoni bo'lmasligi mumkin.
- 2.2.8. Foizlar kapitallashuvi: Bankning ushbu omonat turi bo'yicha Tariflariga muvofiq.
- 2.2.9. Jamg'arma hisobvaraqq bo'yicha foizlarni hisoblash www.tbcbank.uz rasmiy veb-saytida joylashtirilgan Bank Tariflariga ko'ra amalga oshiriladi.
- 2.3. Mijoz mazkur shartnomani vositalar yordamida akseptlash orqali Bankning www.tbcbank.uz saytida joylashtirilgan ushbu bank mahsuloti bo'yicha bank taklif qiladigan Tariflar va shartlarga o'z roziligini bildiradi.
- 2.4. Jamg'arma hisobvarag'ini pul mablag'i bilan to'ldirish uchun kelib tushgan mablag'lar ular kelib tushgan kundan keyingi sanadan kechiktirmay kirim qilinadi.
- 2.5. Mijozning Jamg'arma hisobvarag'idan pul mablag'larini to'liq yoki qisman yechib olish faqat naqd pulsiz shaklda, Bankning ixtiyoriga ko'ra Bankda ochilgan har qanday hisobvaraqqqa, bank kartasiga yoki virtual kartaga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.
- 2.6. Jamg'arma hisobvarag'ini barcha pul mablag'larini Mijozning Bankda ochilgan joriy hisobvarag'iga yoki "TBC Bank" ATB tomonidan chiqarilgan bank kartasiga o'tkazish yo'li bilan yopish mumkin.
- 2.7. O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi talablariga muvofiq, soliq rezidenti maqomiga ega bo'lmagan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan Omonatchilardan Bank to'lanadigan foizlar (daromadlar) summasidan istalgan hisobvaraqlardan keyinchalik budjetga o'tkazish sharti bilan to'lov manbaidan soliqni akseptsiz tartibda ushlab qoladi.
 - 2.7.1. Omonatchi soliq rezidenti maqomini olganda, u BShda belgilangan aloqa kanallari orqali Bankni bunday o'zgarish haqida xabardor qilish majburiyatini oladi.
- 2.8. Jamg'arma hisobvarag'ini ochish va unga xizmat ko'rsatish, shuningdek, operatsiyalarni amalga oshirish uchun Bank Tariflarida belgilanadigan hajm va tartibda komissiya undirishi mumkin.

3. HISOB-KITOBLAR VA FOIZ TO'LOVLARI

- 3.1. Jamg'arma hisobvarag'i bo'yicha foizlar pul mablag'lari o'tkazilgan kunning keyingi kunidan boshlab hisoblanadi va boshqa asoslar bo'yicha Jamg'arma hisobvarag'idan hisobdan chiqarilgan kungacha hisoblanadi.

- 3.2. Foizlarni to'lash: Ushbu turdagi omonat bo'yicha Bankning Tariflariga ko'ra.
- 3.3. Jamg'arma hisobvarag'i bo'yicha foiz stavkasi o'zgartirilishi yuzasidan Tariflarga o'zgartirish kiritish Bankning www.tbcbank.uz saytida, mobil ilovasida va/yoki "TBC Bank" ATB filiallarida tegishli ma'lumotni joylashtirish orqali, Mijozni kamida 10 (o'n) kalendar kun oldin xabardor qilish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. 10 (o'n) kalendar kun o'tgandan keyin Foiz stavkalari bo'yicha tariflar kiritilgan o'zgartirishlarni hisobga olgan holda yangi tahrirda qo'llaniladi.
- 3.4. Agar Mijoz Jamg'arma hisobvarag' bo'yicha foiz stavkalarga kiritilgan Tarif o'zgarishlari bilan rozi bo'lmasa, amaldagi qonunchilikka ko'ra barcha pul mablag'lari va hisoblangan foizlarni talab qilishga hamda Jamg'arma hisobvarag'ini yopishga haqli.
- 3.5. "Tijorat banklarida foizlarni hisoblash tartibi to'g'risidagi" Nizomga (29.09.2023 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3460) muvofiq asos sifatida mijozning hisobraqamida omonat turgan kalendar kunlari hisobga olinadi. Shuningdek, yillik hisob kunlari sifatida 365 kun qo'llaniladi.
- 3.6. Jamg'arma hisobvarag'iga qabul qilingan mablag'larning qaytarilishi 2025 yil 18 fevraldagi O'RQ-1031-son O'zbekiston Respublikasining "Banklardagi omonatlarini himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi Qonuniga asosan fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi banklardagi omonatlarini kafolatlash jamg'armasi tomonidan kafolatlanadi.

4. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Mijoz huquqlari:

- 4.1.1. Bankning ushbu turdagi depozitlar bo'yicha Tariflariga muvofiq maksimal miqdordagi Jamg'arma hisobvaraqlar ochish.
- 4.1.2. Bankka Omonat/jamg'arma hisobvarag'ini to'liq yoki qisman talab qilib olish to'g'risida talabnoma taqdim etish;
- 4.1.3. Bank Tariflarida nazarda tutilgan shartlar doirasida Jamg'arma hisobvarag'iga qo'shimcha pul mablag'larini kiritish, agar ushbu imkoniyat Jamg'arma hisobvarag'i shartnomasi shartlarida belgilangan bo'lsa;

4.2. Mijoz majburiyatlari:

- 4.2.1. Jamg'arma hisobvarag'i bo'yicha shartnoma shartlari bilan tanishish;
- 4.2.2. Hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining va boshqa vakolatli organlarning qarorlariga qat'iy muvofiq ravishda amalga oshirish. Mijoz hisobvaraqlar ochish, hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni bajarish uchun taqdim etilgan hujjatlar va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun javobgardir;
- 4.2.3. Agar hisobvaraqlarga noto'g'ri kirim qilingan va/yoki hisobvaraqlardan noto'g'ri yechib olingan mablag'lar aniqlangan bo'lsa, darhol Bankni bu haqda maqbul usulda xabardor qilish;

- 4.2.4. 3 kalendar kun ichida BShda belgilangan aloqa kanallari orqali mazkur Shartnomaning bajarilishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan yashash manziliga va/yoki telefon raqamiga, shu jumladan mobil telefon, familiya, ismi-sharifi o'zgarganligi, shaxsini tasdiqlovchi hujjat yoki boshqa hujjatlar almashtirilganligi to'g'risida Bankni xabardor qilish;

4.3. Bank huquqlari:

- 4.3.1. Mijozning e'tirozidan qat'iy nazar tegishli davlat organlaridan ijro hujjatlari olingan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda choralar ko'rish (pul mablag'larini xatlash, pul mablag'larni akseptsiz hisobdan chiqarish, hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yish va boshqalar), shuningdek, Jamg'arma hisobvaraqlar bo'yicha pullarni xatolik bilan qabul qilish holati aniqlanganda Jamg'arma hisobvarag'i bo'yicha hisoblangan va to'langan mukofotni qaytarish;
- 4.3.2. Bankning yangiliklarini, shuningdek, Mijozning Jamg'arma hisobvarag'idan amalga oshirilgan operatsiyalar haqidagi ma'lumotni ushbu shartnoma va arizada ko'rsatilgan Mijozning mobil telefon raqamiga SMS/push xabarlar yoki elektron pochta manziliga xabarlar yuborish;
- 4.3.3. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish uchun Bank Mijozdan Jamg'arma hisobvarag'i orqali amalga oshirilgan operatsiyalarning qonuniyligini tasdiqlovchi ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etishini talab qilishga haqlidir;
- 4.3.4. Jamg'arma hisobvarag'i bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda to'xtatib qo'yish yoki amalga oshirishda rad etish.

4.4. Bank majburiyatlari:

- 4.4.1. Mijozga Jamg'arma hisobvarag'idan pul mablag'larini va hisoblangan foizlarni faqat naqd pulsiz shaklda debet kartasiga yoki Mijozning Bankda ochilgan joriy hisobvarag'iga qaytarish.
- 4.4.2. Hisobvaraqlardagi mablag'larni butunligini va daxlsizligini ta'minlash. Hisobvaraqlardagi mablag'larni xatlash yoki hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollardagina amalga oshiriladi.

5. BANK SIRI

- 5.1. Bank O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida"gi qonuniga, BShga va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ma'lumotlarning

maxfiylikni va bank sirini tashkil etuvchi mijozlarning ma'lumotlarini butunligini kafolatlaydi.

- 5.2. Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar Mijoz yoki uning vakili tomonidan uning (yozma yoki elektron shaklda) murojatiga ko'ra Bank tomonidan taqdim etilishi mumkin.
- 5.3. Mijozning Bank siri hisoblangan ma'lumotlari uchinchi shaxslarga O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda taqdim etiladi.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

- 6.1. Tomonlar o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun BShga va ushbu Shartnomaning shartlariga rioya etmagan Tomon O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda javobgar hisoblanadi.

7. ALOHIDA SHARTLAR

- 7.1. Bank tomonidan olingan shaxsga doir ma'lumotlardan quyidagilar uchun foydalaniladi va foydalanilishi mumkin:
 - 7.1.1. Mijoz foyda oluvchi yoki manfaatdor shaxs sifatida bo'lgan shartnomalarni tuzish va ijrosini ta'minlash uchun;
 - 7.1.2. Mijozning huquq va majburiyatlarini lozim darajada bajarilishini ta'minlash uchun;
 - 7.1.3. Ma'lumotlarni verifikatsiya qilish, shu jumladan firibgarlik operatsiyalarga yo'l qo'ymaslik maqsadida;
 - 7.1.4. Shartnomalarning ijrosi bilan bog'liq ma'lumotlarni, uchinchi shaxslarning qo'shma dasturlarida (sodiqlik dasturlarida) ishtirok etuvchi uchinchi shaxslarning ma'lumotlari va axborotlarini Mijozga ma'lum qilish uchun;
 - 7.1.5. Sug'urta, pochta tashkilotlari, aloqa tashkilotlariga taqdim etish uchun;
 - 7.1.6. Bank tomonidan statistik va / yoki marketing tadqiqotlarini o'tkazish va / yoki Mijozga Bank va hamkorlarining yangi mahsulotlari/xizmatlari haqida ma'lumot berish uchun.
 - 7.1.7. Boshqa davlat tashkilotlariga, shuningdek, jismoniy shaxslarga muddati o'tgan Qarzdorliklarni undirish maqsadida taqdim etish.
- 7.2. Mijoz Jamg'arma hisobvarag'idagi pul mablag'larini o'z ixtiyoriga ko'ra mustaqil ravishda tasarruf etadi, BShda, ushbu Shartnoma va amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.
- 7.3. Bank Mijozning mablag'laridan foydalanish shaklini belgilash va nazorat qilish, shuningdek, Mijozning pul mablag'laridan foydalanish va tasarruf etish huquqlarini cheklash huquqiga ega emas.

- 7.4. Shartnomada koʻzda tutilmagan Bank va Mijozning oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar BSh va Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq tartibga solinadi.
- 7.5. Tomonlar uchun Mijozning hisobvaragʻi boʻyicha operatsiyalarni amalga oshirish tartibi Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ-huquqiy hujjatlari bilan belgilanadi va ikkala tomon uchun ham majburiydir.

8. JAMGʻARMA HISOBVARAGʻINI YOPISH VA SHARTNOMANI BEKOR QILISH TARTIBI

- 8.1. Jamgʻarma hisobvaragʻi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda, shuningdek, Bank xizmatlarini koʻrsatish bilan bogʻliq (Mijozga Jamgʻarma hisobvaragʻidan summani va bunday shartnoma shartlariga muvofiq hisoblangan foizlarni qaytarish va Jamgʻarma hisobvaragʻini yopish sharti bilan) Bank oldidagi barcha mavjud qarzdorliklar soʻndirilganda yopilishi va shartnoma belgilangan tartibda bekor qilinishi mumkin.
- 8.2. Jamgʻarma hisobvaragʻini yopilishiga Mijozning istak-xohishiga koʻra yoki Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Jamgʻarma hisobvaragʻi boʻyicha shartnomaning bekor qilinishi asos boʻladi.
- 8.3. Shartnoma qabul qilingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi, nomaʼlum muddatga tuziladi, shuningdek, Mijoz tomonidan istalgan vaqtda yoki Bankning talabiga koʻra sud orqali Mijoz tomonidan qabul qilingan shartnoma majburiyatlarini bajarmaganligi sababli yoki Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa holatlarda uning bekor qilinishiga qadar amal qiladi.
- 8.4. Mijoz ushbu Shartnomaning 3.2-bandida koʻrsatilgan Tariflarga, yaʼni talab qilib olinguncha depozit hisobvara q boʻyicha foiz stavkasining oʻzgarishi borasida kiritiladigan oʻzgarishlarga rozi boʻlmagan taqdirda, Mijozning Bankka masofaviy aloqa kanallari orqali kelib tushgan norozilik va/yoki rad etish Jamgʻarma hisobvaragʻini yopish boʻyicha arizaga tenglashtiriladi va bu Bankka Jamgʻarma hisobvaragʻini yopish huquqini beradi.
- 8.5. Ushbu Shartnomaga kiritilgan barcha oʻzgarish va qoʻshimchalar BShda belgilangan tartibda kiritiladi.